

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA O'QITISH
JARAYONIDA MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH****Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna****Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7889185>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika o'qitish jarayonida mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalalari bayon qilingan..

Kalit so'zlar: mantiqiy tafakkur, masala, yondashuvlar, o'quvchi.

Mantiqiy madaniyat "aniq va tushunarli shaklda mavjud fikrlarni ifodalash va faqat bir shunday shaklda yangi fikrlarga ega bo'lish imkonini beruvchi tafakkur malakalari tizimi" sifatida ta'riflanadi.

Pedagogikada mantiqiy tafakkur turlariga ko'pincha quyidagi: matematik, fizik, tarixiy va boshqa predmetli tafakkur turlarini kiritadilar. Bu shu bilan tushuntiriladiki, mantiqiy tafakkur sifatida ishtirok etadigan faqat shunday nazariy tafakkur o'z haqiqiy predmetini ifodalay oladi, sababi faqat mantiqiy shakldagi tafakkur narsalarning o'z mazmunida, ularning mavjud munosabatlarida harakatlana oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkur muvaffaqiyatli rivojlanishi bevosita ta'lim jarayoni bilan bog'liq; boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkur muvaffaqiyatli rivojlanishi dastlabki mantiqiy malakalarning shakllanishi ma'lum sharoitlarda amalga oshishi mumkin; umumiy mantiqiy malakalar shakllanish jarayoni intellektual madaniyat komponenti sifatida maqsadga yo'naltirilgan, uzluksiz va barcha bosqichlarda uzluksiz maktab fanlarini o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lishi shart.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurning samarali rivojlanishi uchun eng avvalo, o'quvchilarning psixik jarayonlari yosh xususiyatlariga tayanish zarur. boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar sabablaridan biri zamonaviy umumiy ta'lim maktablarida o'quvchi rivoji umumiy qonuniyatlari zaif shakllantirilganligidir.

Bizning mazkur maqolamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika o'qitish jarayonida mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni diagnostika qilish tamoyillarini metodologik asoslash quyidagi ikki asosga tayanadi:

- 1) mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni yuqori darajadagi yaxlit psixologik tizimni o'zida aks ettiruvchi shaxs sifati tarzida ko'rib chiqish;
- 2) shaxsni rivojlantiruvchi sifati tarzida uni mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning dinamik nazariyasi (IDN) bilan bog'liqligini asoslash.

Mazkur asoslarga tayangan holda, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni tashxis etishga doir quyidagi eng muhim yondashuvlarni ajratib oldik:

- 1) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Tekshiruv yosh rivojlanish davrlari, intellekt va affektning o'zaro aloqadorligi va o'zaro harakati, o'z-o'zini anglashning o'ziga xosligi, emotsional-irodaviy va kommunikativ sohalarning rivojlanish darajalari bilan bog'liqlikda shaxs rivoji uchun xizmat qiladigan o'zaro aloqador sifatlarning yaxlit tizimini o'rganishga yo'naltirilgan;
- 2) dinamik yondashuv (o'rganishning uzoq muddat davom etishi, sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan kuzatishlarga murojaat qilish, uning rivojlanishi dinamikasini o'rganish, psixologik to'siqlarni va uni bartaraf etish vositalarini aniqlash). Dinamik yondashuv asosida diagnostik tanlovdan diagnostik

rivojlantirishga o'tish paraligmasini almashtirish bilan shartlangan mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning dinamik nazariyasi (IDN) yotadi;

3) tekshiruv natijasi sifatida nafaqat insonning umumiy va psixik rivojlanish darajasi, umumiy va maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish darajasini aniqlash, balki uning potensial imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsiy rivojlanishini prognoz qilish masalasini tadqiq etishga asoslangan prognostik yondashuv.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, mantiqiy tafakkurini rivojlangan o'quvchilarni aniqlash tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz:

- turli axborot manbalaridan foydalanish va uning qobiliyatlarining kengroq doirasini qamrab olish asosida o'quvchining xulq-atvori va faoliyatining turli jihatlarini baholashning majmuaviy tavsifga egaligi;
- identifikatsiyaning o'zoq muddatligi (sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan kuzatishlarga murojaat qilish);
- o'quvchining qobiliyati va qiziqishlariga maksimal darajada mos keluvchi faoliyat sohasidagi uning xulq-atvorini tahlil etish (o'quvchini maxsus tashkil etilgan predmetli-o'yinli mashg'ulotlarga, faoliyat sohasiga mos keluvchi turli ish shakllariga jalb etish);
- aniq rivojlantiruvchi ta'sirga ega trening metodlaridan foydalanish, o'quvchini psixologik to'siqlardan himoyalash;
- faoliyat sohasi bilan bog'liqlikda mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni baholashga ekspertlar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;
- real vaziyatlardagi o'quvchining xulq-atvorini baholashda samarali natijalarga erishish imkonini beradigan psixodiagnostik metodlarga tayanish.
- Mantiqiy tafakkurini rivojlangan o'quvchining faoliyat usullari uning sifat va samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Ana shu sababli faoliyat samaradorligiga erishishning uchta asosiy darajasi ajratib ko'rsatiladi:
- biror-bir vaziyatga doir qarorlarni qabul qilishda yangi faoliyat usullarini izlab topish va foydalanish;
- fan sohasini chuqur o'zlashtirish asosida faoliyatning yangi cho'qqisini egallash;
- faoliyatni tezda o'zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarish.

Umumiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirish faoliyatning xilma-xil turlariga munosabat bo'yicha namoyon bo'ladi va uning samaradorligining asosi sifatida yuzaga chiqadi. Umumiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik yadrosi shaxsning emotsional, motivatsion va irodaviy sifatleri asosiga qurilgan aqliy qobiliyatlarda aks etadi.

Umumiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirish voqelikni tushunish, faoliyat sohasiga chuqur emotsional va motivatsion jihatdan jalb etilganlikni aniqlab beradi.

Maxsus mantiqiy tafakkurini rivojlantirish faoliyatning aniq sohasida o'z ifodasini topadi va faqat alohida faoliyat sohasidagi (musiqa, tasviriy san'at, sport va h.k.) munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning yuqorida sanab o'tilgan mezonlari o'quvchilar mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni baholash muammosining murakkabligi va ko'p omilli ekanligidan dalola beradi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni tashxis etish har tomonlama

chuqur, majmuaviy tavsifga ega bo'lishi hamda turli darajalarda va bir nechta bosqichlarda amalga oshirilishi lozim.

Tahlillar asosida mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilarni aniqlash bir nechta bosqichlarda amalga oshirilishi va har bir bosqichda turli pedagogik-psixologik diagnostik metodlardan foydalanish lozim degan xulosaga kelindi. Biroq albatta mantiqiy tafakkuri rivojlangan o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirish haqida gap borganda ularni qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. 6-сон.
2. Ғозиев Э. Олий мактаб психологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1997. –104 б.
3. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. Жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. 400 б.
4. Тўхтасинов Д.Ф. 5-9-синф ўқувчиларининг мантикий тафаккурини ривожлантириш: п.ф.б.ф.д. (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2021.
5. Mirzaxolmatovna, X. Z., Nematovna, R. S., & Shavkatovna, S. R. (2022). FORMS OF THINKING IN THE PROCESS OF STUDYING MATHEMATICS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(12), 259-263.
6. Mahpuza, A., Rahmatjonzoda, A., & Zilola, X. (2022). ATTITUDE TO MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(11), 208-212.
7. Adkhamjanovna, K. M., Mirzakholmatovna, K. Z., & Raxmonberdiyevna, T. S. kizi, M. MB.(2022). Increasing Interest in the Lesson through Extracurricular Activities. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 256-261.
8. Mirzaxolmatovna, X. Z. (2021). The role of logical issues in teaching mathematics to primary school pupils. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 465-467.
9. Хурсанова, З. М., Фозилов, Ж. И., & Давыдова, Е. П. (2021). ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ. Интернаука, (24-1), 87-88.
10. Ibrokhimovich, F. J., & Mirzaxolmatovna, X. Z. (2022). THE MOST IMPORTANT ROLE OF MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(3), 652-655.
11. Mirzaxolmatovna, X. Z., & Ibrokhimovich, F. J. (2022). Methods And Techniques of Teaching in Mathematics Lessons in Primary School and Their Positive and Negative Aspects. The Peerian Journal, 5, 70-73.
12. Mirzaxolmatovna, X. Z., & Ibrokhimovich, F. J. (2021). DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN THE LESSONS OF MATHEMATICS IN ELEMENTARY CLASSES. EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management,

8(11), 1-1.

13. Mirzaxolmatovna, X. Z., Ibrokhimovich, F. J., & Ne'matovna, R. S. (2022). Methodology of Teaching Mathematics in Primary Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 81-83.

14. Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna, (2023/02) «Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari» FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI NASHR: 02 94-98